



The description of human spirit through the image of Koravoy in the story “Changalzor iti” by Normurod Norkobilov

Bekzod ASHUROV¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

Normurod Norqabilov,
story,
image,
composition,
character,
“Changalzor iti”,
dog,
Karavoy,
Olapar,
Tolmas.

ABSTRACT

This article examines the characters in the story “Changalzor Iti” by the writer Normurod Norkobilov, their ideological and artistic features, and the degree to which they contribute to the disclosure of the writer’s artistic goal. The author highlights the features of Koravoy’s character traits in the story “Changalzor Iti”. The image of the dog was analyzed in parallel with the image of Tolmas.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp217-223>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” qissadidagi Qoravoy obrazi orqali inson ruhiyatining tasvirlanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Normurod Norqobilov,
hikoya,
obraz,
kompozitsiya,
personaj,
“Changalzor iti”,
it,
Qoravoy,
Olapar,
Tolmas.

Ushbu maqolada yozuvchi Normurod Norqobilovning “Changalzor iti” qissasidagi qahramonlar, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, yozuvchi badiiy maqsadini ochishga qay darajada xizmat qilishi haqida fikr yuritiladi. “Changalzor iti” qissasidagi Qoravoy obraziga xos xarakterli xususiyatlarni yoritilgan. It obrazi Tolmas obrazi bilan yonma-yon tahlil qilingan.

¹ Teacher, Department of Uzbek Literary Studies, Namangan State University. E-mail: bekzod.ashurov.1994@mail.ru

Описание человеческой психики через образ Коровя в повести Нормурода Норкобилова «Чангалзор Ити»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Нормурод Норкобилов,
сюжет,
образ,
композиция,
персонаж,
«Чангалзор Ити»,
собака,
коровой,
Олапар,
Толмас.

В данной статье рассматриваются персонажи повести «Чангалзор Ити» писателя Нормурода Норкобилова, их идейно-художественные особенности, а также степень их содействия раскрытию художественной цели писателя. Автором выделены особенности черт характера Коровя в повести «Чангалзор Ити». Образ собаки был проанализирован параллельно с образом Толмаса.

KIRISH

Yozuvchi Normurod Norqobilov o'z uslubiga ega ijodkor ekanligi uning kitobxonlari, muxlislarga ma'lum. Uning asarlarini muxlislari sevib o'qishmoqda. Anjumanlarda uning asarlari to'g'risida ijobiy fikrlar bildirilyapti, asarlari bahs-munozaralarga sabab bo'lyapti.

Adabiyotshunos olim Bahodir Karim aytganidek: "Asrlar bo'yi amaliy tajribadan o'tgan haqiqat shuki, san'atkor muayyan mavzuga qo'l urib, voqelikni maromiga yetkazib tasvirlasa, har qanday inson ko'ngliga o'tiradi, ko'pchilikni o'ylantiradi, qalbiga zavq, tafakkuriga yuk beradi". Ijodkorlar qaysi mavzuda, qaysi janrda qalam tebratsa ham albatta inson qalbini zabt etishni maqsad qiladi. Adib Normurod Norqobilov asarlarining badiiy xususiyatlari haqida bir qator ilmiy tadqiqotlar qilinmoqda. Yozuvchi uslubining o'ziga xosligi, asar qahramonlarining hayotiyliigi, asarning o'qimishli, yuqori saviyali bo'lishi asosiy omillardan hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, ba'zi asarlarda uyushtirilgan sarguzashtlar, o'quvchini jalb etadigan voqealar, qahramonlar tasviri zamirida muallif aytmoqchi bo'lgan badiiy haqiqat yotadi. Shu ma'noda Normurod Norqobilovning "Changalzor iti" qissadidagi Qoravoyning qiliqlari va bunga javoban mushukning ham gajak bo'lishi, kerishi ortida har bir maxluqotning individual jihati borligi ko'rinadi. Lekin Qoravoy bilan bog'liq intrigalar asosida bitta haqiqat bu jonli mahluqotlarda, ayniqsa, genezisi bo'yicha bo'rilar oilasiga mansub itlarda ham g'urur, o'ziga xos erkinlik mavjud. Ularga munosabatda tabiat va inson uyg'unligiga oid tartibdan chetga chiqmaslik haqidagi azaliy hikmat ta'kidlangan. Demak, yuqoridagi parchada muallif obrazni xarakter darajasiga olib chiqishga intilgan. Birinchi galda, Qoravoy va mushuk xarakterini badiiy idrok qilish asnosida obrazlar ruhiyati, tabiatini aks ettiradi. Ikkinchidan esa, mazkur tasvirlar zamirida ijtimoiy muammolar, inson va inson munosabatiga ishora ham mavjudki, buni kinoyaviy tarzda ifodalagan deyish mumkin.

Qissadagi obrazning sarguzashtlarini rivoya qilar ekan, yozuvchi syujet jozibadorligini ta'minlashga intiladi. Buni itning turli vaziyat va munosabatlarga solinishida kuzatish mumkin. Xususan, mushukchadan tortib olingan va buning oqibatida malla ona mushuk yag'riniga zarbaga berishi mahsuli sifatida olingan sichqon va uning

qonida tanasiga “ajib bir titroq” taralganini his etadi: *“Shu kundan e’tiboran tevaragidagi jamiki jonliqqa yemish deb qaraydigan bo’ldi. Hatto changalzorni makon tutgan yovvoyi mushuklar ham bundan mustasno emasdi. Ammo ularni tutmoqqa unga yo’l bo’lsin. O’sha kuni u yumroqoziqqa tashlanib ko’rdi. Yumronqoziq iniga urib ketgach, beozor toshbaqaga og’iz soldi. Chog’roq suyaklarni maydalashga qodir uning metindek kosasi oldida ojiz qoldi. Toshbaqaning sichqon kabi yumshoq emasligidan ajablanib turganida, ko’zi birdan pildirab borayotgan tipratikanga tushib qoldi. Bir sakrab unga og’iz urdi-yu, tumshug’i yaralanib, angillab yubordi. Qaytib bu jonivorga qotilmaydigan bo’ldi”*. [5, 240-bet]. Mazkur o’rinda Qoravoyning olamni avvalgidek qiziqish uchun emas, balki yemish istagi bilan anglash jarayoni va bu yo’ldagi urinishlari keltirilgan. Yumroqoziq, tipratikan, toshbaqa kabi jonivorlarga bo’lgan munosabati ortidan to’plangan instinkt va tajribalari rivoiyga qiziqarlilik bag’ishlagan. Ko’rinadiki, obraz sifatida Qoravoy idrokida o’zgarish yuz bergan. Endi uning uchun yemish birinchi o’ringa chiqqan. Bu tabiatning dahshatli qoidasi, bo’lsa-da, tirik qolishning yagona chorasi hisoblanadi. Buni Qoravoy hayotida Olapar suyak olib kelganda Qoravoy unga tashlanganda tishlab otib yuborgani yoki keyin onasiga bermasdan suyakka egalik qilgani kabi tasvirlarda dastlab uchraydi. Ammo keyinchalik qon ta’mini tuygach, Qoravoydagi bu jihat yanada kuchayadi. Aslida Qoravoy onasi olib kelgan suyaklarning ortganini ko’mib, unga onasini yaqinlashtirmasligi va onasi esa unga qaramasligi keyinchalik ikki o’rtadagi uzoqlashish, keyinroq esa begonalashuvni yuzaga keltiradi. Olapar ferma qorovuli o’qidan o’ladi. Yozuvchi buni shunchaki xabar sifatida, Qoravoy mustaqil yashay boshlashini keltiradi. Buning ikki omili bor. Birinchidan, Olapar Qoravoy mustaqil yemish izlashga tayyorligini anglagan. Ikkinchidan esa Qoravoyning hayotga qanchalik ertaroq tayyor ekanligi isbotlansa syujet rivojida ham shunchalik jozibador bo’ladi. Shuning uchun syujet kompozitsiyada Olaparga o’rin qolmagan edi. Bu obraz dinamikasining mantiqiy yechimi deyiladi.

Endi syujet kompozitsiyasida Qoravoy boshqacharoq harakat qila boshlaydi: *“Qoravoy onasini behuda kutib yurgan kunlari suyak g’ajishdan tashqari ov qilmoqning ham hadisini oldi. Yalanglikdan yuz odimcha naridagi butalari siyrak maydonda yumronqoziqlar oilasi yashardi. U kattakon soqchi yumronqoziqni ko’z ostiga olgandi. Ammo uni qo’lga tushirmoq oson emasdi. Yumronqoziqni eployolmagan esa-da, uni poylash mobaynida shuni uqdiki, bu dunyoda hech bir tirik jon osongina o’lja bo’lavermas ekan”* [5, 242-bet]. Mazkur xulosa Qoravoyning hayotiy tajribalar natijasidagi yana bir falsafasi edi. To’g’ri shartlanganlik asosida u insoniy xulosa kelgan deyish ham mumkin. Lekin eng katta tajriba bu har bir voqea, hodisa yoki jarayondan to’g’ri xulosa chiqara bilish ekanligini inobatga olsak, Qoravoy obraz sifatida to’g’ri yo’ldan ketayotgan edi.

Yoz kelib, Qoravoy yanada kuchga to’lgach, yotar joyi chagalzor bo’lsa-da, chunki bu yer unga vatan, o’zi Toshli soyning yuqori o’zanida kezib yurar, suvda cho’milgani bayon qilinadi. Shu yerda yana bir qiziq voqea yuz beradi: *“Suvdagi yakkam-dukkam baliqlarni ko’rib anqaysa-da, birortasini tutib yeyolmadi. Lekin bir necha bor haraka qilgani rost. Biroq baliq degani o’zi o’ylaganchalik ovsar emas ekan, bekorga urungani qoldi”* [5, 246-bet]. Bu yerdagi muhim jihat Qoravoyning o’zligini anglashi (o’zi o’ylaganchalik ovsar emas ekan), ikkinchisi esa shu yerda muallif pozitsiyasi bilan obrazning voqealar rivojidagi o’rnida ham farqlar yuzaga chiqqan. To’g’ri, yozuvchi roviy obrazi misolida voqeani bayon qilmoqda. Ammo u aksariyat o’rinlarda xolis turib bayon qilsa, bu yerda itga nisbatan balandroq, insoniy pozitsiyasi borligi parchaning mazmunida yorqinroq ochilgan.

Qissa ham epik turga mansub bo'lib, undagi epik tafakkur kengligi, ba'zi tasvirlarda dramatik keskinlik mavjudligi syujet va obrazning o'sib, takomillashuviga xizmat qilgan. Bular bari rivoiyda yuksak darajada dalillangan. Qissada umumiy mohiyatni bayon qilayotgan roviy nutqi, ba'zi o'rinlardagi insonlar nutqi ham aynan Qoravoy obrazining badiiy-estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Voqealar zamiridagi kechinmalar keskinligi, voqealarning ba'zan qaltis, ba'zan dramatik tus olishi esa ba'zi qishloqdagi davr ruhiyatini ham ko'rsatadi. Qoravoy obrazining ichki olamni aks ettirgan tasvirlar obrazga realistik tus beradi. Bu ayniqsa, Qoravoyning konkret kurash, yemish izlash bilan bog'liq harakatlarini mantiqiy jihatdan asoslaydi.

Qoravoyda hamma tirik jonzotga yemish sifatida qarash, yovvoyi tarzda yashash natijasida unda taptortmaslikni, shiddatni yuzaga chiqardi. Lekin unda o'z uyidan, sayhonlik, changalzordan uzoqlashgach, notanishlikdan qo'rqish, bilmagan narsasida ehtiyotkor bo'lish hissi ham shakllandi. Qoravoy Toshlioyning yuqori o'zanida o'tirganida dimog'iga qishloq tomondan tovuqlarning hidi kelishi va uning Yakkatut qishlog'i tomonga borish paytida ham notanish tepaliklar ortidan yanglanglikka chiqib bir oz turadi. Chunki oldindagi makonni yaxshi bilmaslik, uni hali o'z tushunchasi bo'yicha anglab ulgirmagani Qoravoyni biroz sarosimaga soladi. Lekin shunday bo'lsa-da, Qoravoyni ichki bir istak olg'a undaydi. Bu yovvoyilik istagi, qon va xom go'shtni tatish istagi edi.

Aslida istak odamda ham, hayvonda ham bo'ladigan tabiiy tilak sanaladi. Odam yo'lbars, arslon, qoplon, bo'ri, ot, it kabi jonzotlar birga yashab, ularning ba'zi xususiyatlarining kishida yo'qligini anglagan. Chunki yo'lbarsning matonati, bo'rining erki, arslonning adolati, otning do'stligi, itning sadoqati kishi taraqqiyoti, boylik orttirish, jamiyatda ma'lum mavqega erishishida doimo qo'l kelgan. Natijada mana shu hayvonlar odam uchun alohida ahamiyat kasb eta boshlagan. Odam ana shu hayvon bilan birga yashash jarayonida ular bilan muloqot qilishga intilgan. "Darhaqiqat odamizod eng ibtidoiy davrlardan buyon tabiat, jonivorlar bilan baqamti yashab keladi. Ulardan olgan taassurotlarini badiiy so'z yoki ifodalarda aks ettiradi. Tabiat va inson muammosini bu tarzda aks ettirilishi ko'pincha kishilar va alohida odamlar dunyoqarashi, axloqini tarbiyalash, mukammal etishga xizmat qiladi". Bu fikrda jon bor, ammo ba'zi hayvonlar ham odam bilan, tabiat bilan muloqot jarayonida takomillashib boradi. Masalan, Qoravoy obraz sifatida mungni his etadi, teran aglaydi. Buni biz Tolmas yig'laganida tushungani haqida fikrimizda keltirdik. Ammo itning o'zidagi uvlash, yurak-yuragidan osmonga qarab mungli ovozda nola qilish ortidan itning ham dardini aytish, allaqanday ichki anglash yordamida boshqa mung, yig'inilarni tushunushi berilgan. It tabiatga bog'langanini, uni mehr bilan sevishini his etadi. Shuning uchun u it va odamlarni ham yaxshi farqlaydi. Xonaki itlarni suymaydi, ulardagi jur'atsizlik, tobelikdan jirkanadi. Ularga qarshi kurashadi. Masalan, *"It deganlari favqulodda vaziyatda juda zirak keladi. Qoravoyning vajohatidan ne gapligini fahmlagan jonivorlarning oyoq olishlari taysallanib narida to'xtaydilar. Endigi jang beomon bo'ladi. Qoravoyga birinchi bo'lib hujumga o'tgan itning sho'ri quriydi. Bu hol uning butun vujudidan sezilib turardi. Natijada hamla qilishga itlarning jur'ati yetmay akillashga tushishdi"* [5, 252-253-betlar]. Ushbu parchada Qoravoyning Ola it, To'rtko'z, Qashqa laqabli qishloq itlari bilan bir o'zi kurashgani aks etgan. Unda Qoravoyning jasorati, o'z haqqi va sha'nini himoya qila olishi berilgan. Mazkur parchaning davomida esa Qashqa haqidagi fikr berilgan: *"Uning maskan haqidagi tushunchasi yaloq bilan cheklanar, yalog'iga tegilmasa bas, qolgani bilan ishi yo'q edi. Hovlida savlatli qo'riqchi aslida esa o'tkir tuyg'ulardan yiroq edi u"* [5, 253-bet].

Mana shu yerda xonaki it bilan Qoravoy kabi yovvoyilikda, erkinlikda o'sgan itning farqi ochilgan. Majoziy ma'noda bu epizodda vatanparvarlik masalasi ham ochilgan. Qornim to'q, qulog'im tinch, boshqa bila nima ishlab bor qabilida yashovchi, atrofida yurt, xalq mulkini talon-taroj qiluvchi yoki vatanini indamay yemish yoki farovon hayot evaziga sotayotgan vatanfurushlar tasviri berilgan. Demak, Qoravoy ozod, erkin hayotning egasi sifatida haqiqiy qahramon sifatida tasvirlangan.

To'g'ri, qissada Qoravoyning Tolmas bilan tanishuvi, sekin-astalik bilan unga yaqinlashishi va zanjirga tushishi, tutqinlikdagi hayoti ham tasvirlangan. Bunda Tolmas Qoravoyda haqiqiy jasorati, boshqa itlarda ko'rilmagan xislatlarni ko'rgani va uni o'ziga it qilib boqib olmoqchi bo'lgani keltiriladi. Ammo uyiga olib borganda esa tog'asi Qoravoyni zotdor it qidirib yurgan odamlarga sotib yubormoqchi, uning ozodligini cheklamoqchi bo'ladi. Asirlikda hayot Qoravoyning ruhini sindirishga qaratilgan barcha usul va vositalar qo'llaniladi. Tutqunlikda Qoravoy qo'lda berilgan hech narsaga qaramaydi, lekin bir gal zanjir yetadigan joyga kelgan tovuqni tutib yeb qo'yadi. Tog'a uni o'lasini qilib uradi. Oxiri itning bo'ysunmas ruhini egolmagan tog'a jiyani Tolmasni ham yetimchaligini yuziga soladi, it deya urishadi. Bundan o'ksigan bola Qoravoyning oldida yig'lab yuboradi. Shu yerda Qoravoy qalbida uning nolasida o'z uvlashidagi kabi nimadir borligini anglaydi. Bolaning qo'lini yalab, unga yupanch bo'ladi. Shu yerda u bolaning niyati itni himoya qilish ekanligini tushunadi.

Qissa boshidan beri itning har bir harakatlari batafsil yoritilgan lavhalar mazmuni, asarni o'qiganda o'quvchiga beradigan ichki dinamik kechinma mohiyati erk, shaxs ozodligi ekanligi haqida fikr ochiladi. Xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov professor U.Normatov bilan bir suhbatida badiiy so'z ichki mazmuni, asarda so'zdan foydalanish haqida quyidagilarni aytgan: "Har bir chinakam badiiy asarning o'z ichki musiqasi bo'ladi. Bu kuy hali adib yozuv stoliga o'tirmasdan oq boshlanadi... xullas, shu kuy bo'lmasa, asar chinakam badiiylilikdan mahrum bo'ladi". Qoravoy nima qilmasin ana shu ichki hayotiy kuch kuyga aylanib, uni olam bilan tanishuvi, hatto bu tasvirlar tabiat unga bergan yashash tarzi uchun ekanligi oydinlashadi. Ruhi uyg'oq, qalbi teran hissiyotli va fikrlari sog'lom odam uchun Qoravoy ozodlik ramzidek tuyuladi.

"Chinakam san'at namunasi bo'lgan badiiy asar mazmun-mohiyati, asos-negizi, ... adabiyotshunos-munaqqidning fikr maydonidir". Shu tamoyildan kelib chiqib fikr yuritsak, fasl boshida biz Qoravoyni yovvoyiligiga urg'u bergan edik. Bu yerda esa ozodlik timsoliga aylanganini ta'kidlayapmiz. Aslida yovvoyilik tushunchasi ostida tabiiylik, Yaratgan qanday yaratgan, nima ko'nikmalar bergan bo'lgan, shu asosda yashash va tirikchilik qilish itning haqiqiy erki edi. Qissada yozuvchi Qoravoyning ana shu jihatiga katta e'tibor qaratgan.

Qoravoy obrazining mohiyatini ochishda Tolmasning alohida o'rni bor. Bola birinchi marta itni yantoq chopib yurgan paytida qishloqdan kelgan va Qoravoyni quvgan uch it ortidan kelib, tepalikda itlarning Qoravoyga gizlangan paytida ko'rgan. Shunda uch itga qarshi mardona qarshi turgan Qoravoy tabiatidagi boshqa itlarda uchramaydigan narsani ilg'aydi. Tolmas xonaki itlarga o'zi ularni kuzatib turganini sezdirmaydi. Chunki agar odam borligini bilib qolishsa, Qoravoyga tashlanishlari mumkin edi. Bu yerda ham xonaki itlarning qo'rqqoligi, orqasida odam bo'lsa, ular daldasi bilan kurashga chiqishi, o'z holidan aniq maqsad sari kurashmasligi ochiladi. Qoravoyda esa bu masalada boshqa tanlov qolmagan edi. Ortida uning yashash makoni, vatani turar shuning uchun u ochiq jangga tayyor edi. Shu holat obrazning mohiyatini to'laroq ochadi.

Oradan ma'lum vatq o'tgach, bu gal to'rt kun och qolgan va quymuchidan o'q yegan Qoravoy Tolmasni ko'radi. Dastlab u bolaga tashlanmoqchi bo'ladi. Ammo madori yetmaydi. "U irillash bilan cheklanarkan, nochorligi kor qilib ingillab yubordi. Igillasa-da ko'zlari cho'g'day yonardi....

Tolmas yovvoyi it duch kelganini darrov fahlagandi. Irillashidan uning dardmand ekanligi payqab buta shoxlari orasidan sekin mo'ralagan va itning chovut solmoqqa holi kelmasligiga ishonch hosil qilgachgina sayhonlikka chiqqandi. Tabiatan, jonivorlarga uning mehri baland edi. ... u itlarni alohida mehr bilan yaxshi ko'rardi. Tabiiy, Qoravoy buni bilmas, qarshisidagi bolaga g'anim ko'zi bilan tikilib, beto'xtov irillar edi" [5, 263-bet].

Mazkur parchada Qoravoyning Tolmas bilan yaqindan ilk bor uchashgani, uchrashganda ham, o'z vatani deb bilgan, begona jonzotlarni yaqiniga ham yo'latmaydigan inida, sayhonlikda uchrashgan edi. Buning ustiga Qoravoy nochor ahvolda, Tolmas esa qo'rquv bilmas edi. Lekin baribir it hali Tolmasning xarakteridagi mehrni, itlarga bo'lgan mehrni anglamas edi. Shuning uchun unga dushmanlik ko'zi bilan qaraydi. Ammo bola unga non olib keladi va o'lim holatidagi itning joniga oro kiradi. Shu tariqa Qoravoyning nonga, odamga qaramligi boshlangan edi. Tirik qolish ilinji va bir parcha hali unga notanish bo'lgan qattiq non uni bolaga nisbatan qiziqish bilan qarashiga asos bo'ldi. Lekin hali bolaga nisbatan adovati, allaqaday xavfsirashi bor edi. Ammo it tuzalguncha har kuni uni yo'qlab turgan, non bilan boqqan bolani nihoyat bitmayotgan yarasiga teginishga izn beradi. Keyin esa unga suyaklar olib kelib beradi. Yomg'irda qolmasin, deb ustiga yelim yopinchiq yopib qo'yadi. Shu tariqa it unga irillamay qo'yadi. Yozuvchi ana shu bayonlar ortidan it xarakteridagi yovvoyilik erib, odamga sekin-asta ko'nika boshlaganini berar ekan, Qoravoy obrazining evrilishini hayotiy asosda ochib beradi. Qoravoy kasal yotganda yegan non, suyaklari va hatto boladan ham tutin yana boshqa narsalarning hidi borligini sezadi. Yozuvchi shu o'rinda madaniy hayot belgilari bilan Qoravoyning yovvoyi hayoti o'rtasidagi ba'zi farqlar hatto hid orqali ham sezilishi keltiradi. Bu esa yovvoyilikka o'rgangan itga boshqa ta'sir qiladi. Ammo ochlik va bolaning itga ko'rsatgan mehri ustinlik qiladi. Bu bir tomondan, yovvoyilikni ham mehr orqali yengish mumkinligi haqidagi g'oyani anglatga, ikkinchi tomondan ilojisiz qolgan chog'da ijtimoiy hayot unsurlarini qabul qilgan yovvoyi it tuzalgach baribir asl holiga qaytganda yovvoyi turmushiga qaytishini bildiradi. Chunki Qoravoy haqida yozganda unga berilgan ta'riflardan biri quyidagicha edi: *"Yovqur tabiatli jon zaifdan hamma vaqt jirkanib kelgandek, tishi o'tmay turiboq "dod"lab dunyoni boshiga ko'targan maxluqdan Qoravoy irgandi... Qoravoyni bu qadar qahrlantirgan narsa oldidagi yemish emas, balki yovvoyi jondorlar orasida mavjud bo'lgan azaliy taomilga bo'lgan xiyonat edi. U o'laksa ustiga tuproq sochibgina qolmay, odatga binoan o'z belgisini ham muhrlagan edi. Ammo xonaki befarosat itlar bu belgini anglashmagan"* [5, 267-bet].

Yozuvchi parcha xonaki va yovvoyi itlar farqini ochar ekan, insonga o'rgangan itlar mute va asosiy xususiyatini yo'qotishini alohida ta'kidlaydi. Bu esa Qoravoyning xarakteridagi jihatlarni yanada qavarib yuzaga chiqishini ta'minlaydi. Lekin Qoravoy ham shu voqeadan bir kun o'tib Tolmasning qo'lga bandi bo'ladi. U bola olib kelgan tovuq suyaklarini yegach, mudrab bolaning oyoqlariga boshini qo'ygancha ko'zini yumadi. Bola esa uni qo'li bilan silay boshlaydi. Qoravoyga bolaning bu mehribonligi onasining yalab-yulqashini esladi. Vujudiga huzurli bir titroq kirgandek tuyuladi. Ammo Tolmasning ikkinchi qo'li uning tumshug'iga tumshuqbandni solib bo'lgan edi. Bu yerda Tolmasning yosh bo'lishiga qaramasdan hayotda ko'p qiyinchilik ko'rgani, pishiqligi, ayyorligi, mehnatda qotganligi qo'l kelgan edi.

Qoravoy tutqunlikda ma'lum muddat yashaydi. Lekin ozodlik, erk va o'zi istagan yovvoyi tabiatdagi yemishlarni qo'msaydi. Payt topib qochadi va keyinchalik odam uni tepalikda mag'rur yurgani, bo'rilar to'dasiga bosh ekanligi haqida qisqacha xabar beriladi. Bu esa umumiy planda Qoravoy obraz erk, ozodlikka tashna obraz ekanligini yana bir bor asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qissadagi obrazning tahlili yakunida mazkur asarni AQSH yozuvchisi Jek Londonning "Ajdodlar chorlovi" (The Call of the Wild) qissasidagi bosh qahrmon bo'lgan Bek laqabli it obraziga ba'zi jihatlar o'xshab ketadi. Xususan, ikkala asarda ham bosh qarahamonlar it ekanligi, Qoravoy va Bekning aqlliligi, asar oxirida ikkalasi ham bo'rilar to'dasiga qo'shilib ketishi haqidagi tasvirlarda yaqinlik bor. Ammo qolgan jihatlarida umuman boshqa-boshqa yaqinlik asar sanaladi. AQSh yozuvchisining asarini bizning tadqiqot obyektimizga kirmagani uchun bu yerda batafsil to'xtalmadik.

Xullas, "Changalzor iti" nomli qissa orqali yozuvchi asl tabiat qonuniyatlari asosida yashgan it obraz, baribir erk va ozodlikka tashna, u tabiat qoidalari bo'yicha yashashini badiiy ifodalaydi. Bunday it aslida ko'plab odamlarning orzusi, ammo tutqunlik, erksizlikda yashash va insonga qaram bo'lish Qoravoyga yot narsa ekanligi ta'kidlangan. Majoziy ma'noda esa Qoravoy shaxs erki qanday bo'lishini ham bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.82 (232).
2. Баҳодир Карим. Руҳият алифбоси. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2016. 41-бет.
3. Файзуллаев Х. "Бўталоқ" ҳикоясида инсон ва табиат фалсафаси // Sharq Yulduzi. 2021, № 1. – Б. 154 (153-157).
4. Норматов Умарали. Бадий сўз қудрати (Ёзувчи Ўткир Ҳошимов билан суҳбат) // Норматов У. Қодирий мўъжизаси: Тадқиқот. Қайд, суҳбат ва мулоҳазалар. – Тошкент: O'zbekiston, 2010. – Б. 240 (272 б.)
5. Норқобилов Н. Бекатдаги оқ уйча. Ҳикоялар ва қиссалар. – Тошкент: Шарқ. – Б. 234-297. Tadqiqotdagi havolalar shu manbadan olindi.
6. Qaralsin: The Call of the Wild by Jack London. www.freeclassicebooks.com.
7. Юлчиев К. Семиотическая характеристика в лирике Анвара Обиджана. // Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 2023. №1. – С.387 (383-387) <https://scholar.google.com/citations?view>
8. Умунов Х. Адабиёт назарияси: – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.137.
9. Иброҳим Ҳаққул ҳақиқати: адабий ўйлар, ҳикматлар, лутфлар / Нашрга тайёрловчи: Зулайҳо Раҳмонова. – Тошкент: Trust and support, 2023. – Б.27 (296).
10. Файзуллаев Х. "Бўталоқ" ҳикоясида инсон ва табиат фалсафаси // Sharq Yulduzi. 2021, № 1. – Б. 154 (153-157).